

МАКТАБ О'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

*Muhiddinova Surayyo Jo'rayevna**Buxoro tuman 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik-pedagogik asoslari, bu jarayonda o'qituvchi, psixolog va ota-onaning o'rnini hamda o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, yo'naltirish, o'quvchi, qobiliyat, qiziqish, psixologiya, motivatsiya, ta'lim.

KIRISH

Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish — bu ularning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kelajak kasbini ongli ravishda tanlashga yordam beruvchi muhim pedagogik jarayondir. Bu jarayon o'quvchining hayotiy yo'lini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kasbga yo'naltirish jarayonida eng avvalo o'quvchining qiziqishlari va moyilligi o'rganiladi. Har bir bola turli sohalarga qiziqadi va shu qiziqishlar uning kelajakdagi kasb tanlashiga asos bo'ladi. Shuningdek, qobiliyat va iste'dod ham muhim omil hisoblanadi, chunki har bir kasb ma'lum bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

Bu jarayonda psixologik diagnostika usullari — testlar, suhbatlar va kuzatish metodlari orqali o'quvchining shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi. Olingan natijalar asosida unga mos kasbiy yo'nalishlar tavsiya etiladi.

O'qituvchi va psixolog kasbga yo'naltirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchining darsdagi faolligi va qiziqishlarini kuzatsa, psixolog uning ichki motivatsiyasi va psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Ularning hamkorligi to'g'ri kasb tanlashga yordam beradi.

Ota-onalarning ishtiroki ham juda muhim. Ular farzandining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, unga bosim o'tkazmasligi va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratishi kerak.

Shuningdek, kasblar haqida to'liq ma'lumot berish, kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish va amaliy tajribalar o'quvchilarning ongli tanlov qilishiga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirish-bu o'quvchining butun hayoti uchun o'zi tomonidan kasb tanlashi emas, balki, inson kasbiy faoliyatini boshlaganda, o'zini unda namoyon eta olishi uchun shaxsiy ichki resurslarini faollashtirishi hamda kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlanishning shakllanishidir. Yuqorida qayd etilgan dasturning ikkinchi bosqichining vazifasi **“Kim bo'lsam ekan?”** boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirishdir. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari boshlang'ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

-kichik maktab yoshida o'qishga va mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishni shakllantirish, ularning jamiyatda va inson hayotida muhim ahamiyatga egaligini tushunish;

-ota-onasining va boshqa oila a'zolarining hamda turli kasblarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, "Kasblar olami" bilan tanishtirish;

-o'quv, mehnat, ijodiy va kommunikativ faoliyatda malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish;

-kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik-pedagogik tashxisi, umumiy psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishi korreksiyasi (boshlang'ich sinfda o'qish va ushbu bosqichda kasb-hunarga yo'naltirishning vazifalari bilan bog'liq);

-ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-xarakat, verbal va mantiqiy tafakkurni, tasavvurni, ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarni yodda saqlash va qayta tiklashning oddiy va murakkab operatsiyalarini rivojlantirish (kasbiy ma'lumotni qabul qilish bilan bog'liq);

-umumiy o'quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo'lgan o'quv fanlarini o'zlashtirishi bilan bog'liq);

-kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning iqtidorini, qobiliyatini aniqlash, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish (iqtidorli bolaning boshlang'ich sinflarda va oilada ta'lim va tarbiyasi; shuningdek, kelgusida ixtisoslashtirilgan litsey, maktab yoki internatlarda o'qish imkoniyati bilan bog'liq).

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

-kasb-hunarga yoʻnaltirish haqida hikoya, suhbat, sheʼr, topishmoqlar, kitoblar, (kichik maktab yoshi davriga tushunarli tarzda kasbiy maʼlumot berish);

-kasbga yoʻnaltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlari, slaydlar, videofilmlar namoyish qilish (kichik maktab yoshi davriga tushunarli tarzda koʻrgazmali-obrazli kasbiy maʼlumot berish);

-rivojlantiruvchi va oʻrgatuvchi kasbiy oʻyinlar (kichik maktab oʻquvchilariga oʻyin, oʻquv va kommunikativ faoliyatlari bilan birgalikda kasbiy maʼlumot berish);

-oʻquv darslari, “mehnat darsi”, “kasbga yoʻnaltirish darslari” konkurslar (mehnat va ijodiy, oʻquv faoliyat jarayonida kasbiy maʼlumot);

-ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbga yoʻnaltirish boʻyicha tavsiyalari, kasbiy maslahat, kasbiy maʼrifat, ularning bilimlarini mustaxkamlash va rivojlantirish, mehnat malakalari va koʻnikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

Keyingi bosqich- “Kasblar olamiga sayohat” qidiruv-rivojlantiruvchi kasbga yoʻnaltirish”. Kasb-hunarga yoʻnaltirish ishlari oʻrta sinflarda (6-7 sinflar) kichik umumiy oʻrta taʼlim maktablarining kichik va oʻrta yoshdagi oʻsmirlar uchun 11-12, 13 -14 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Maktab oʻquvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash.

Kasb-hunarni mustaqil tanlashga ehtiyojning paydo boʻlishi uning dunyo bilan oʻzaro munosabatlar tuzilmasida shaxs nuqtayi nazariga ega boʻlish

istagi shaxs rivojlanishining ancha yuqori darajasiga erishganidan dalolat beradi. Psixologik jihatdan shaxsiy mustaqil tanlov–bu o‘zi nimani istashi (maqsad, vazifalar, hayotiy rejalar, eng yuksak orzular), o‘zini anglash ekanligini (o‘zining shaxsiy va jismoniy xususiyatlari), o‘zi nimalarni uddalay olishini (imkoniyatlari, moyilliklari, iste’dodi, qobiliyati), undan boshqalar nimani istashini va kutishini (jamo va jamiyat) anglagan subyekt, ya’ni ijtimoiy munosabatlar tizimida faoliyat yuritishiga tayyor subyekt. Mustaqil tanlash, munosabatlar sohasiga bog‘liq holda hayotiy, ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy turlarga bo‘linadi.

Kasbga o‘rgatish singdirilgan ta’limiy-axloqiy asarlarda, hunar o‘rganishga doir risolalarida barkamol inson tarbiyasi haqida nazariy va amaliy jihatdan ilgari surilgan. Bularning barchasida ma’naviy barkamol shaxsga xos fazilatlarni ta’riflash, ayniqsa, mehnat ahlini ulug‘lash, yosh avlodning kasb-hunarni egallashga undash, ustoz-shogird talablari va tamoyillari muhimdir.

Hayotda o‘z o‘rnini mustaqil topish murakkab, integrativ tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga ijtimoiy, boshqaruv, kasbiy, oilaviy va shaxsiy mustaqil tanlovning boshqa turlarini ham qamrab oladi. Hayotda o‘z o‘rnini mustaqil topish–bu hayot davomida kasb faqatgina hayotning strategik yo‘lini qurish vositasi sifatida aks etuvchi, turmush tarzining tanlovidir. Shaxsning faoliyati, o‘zini rivojlantirishni xarakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblangan faolligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy o‘rnini mustaqil tanlash–bu jamiyatda tanlab olgan va o‘zi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir sohasiga va ma’lum bir ijtimoiy doiraga tegishliligi mezonlariga nisbatan belgilashi hamda o‘zini kasblarning ma’lum

bir doirasi bilan cheklashdir. Ijtimoiy oʻrnini mustaqil tanlash ijtimoiy holatni va maqomni tanlashni nazarda tutadi. Shaxsiy oʻrnini mustaqil tanlash –bu jamiyatda ishlab chiqilgan va inson tomonidan qabul qilingan, shaxsning qaror topishi mezonlariga nisbatan oʻz oʻrnini mustaqil tanlashi va oʻzini mazkur mezonlar asosida ijobiy namoyon qilishidir.

Shaxsiy oʻrnini mustaqil tanlashning hayotiy oʻrnini mustaqil tanlashdan muhim farqi shundaki, insonlar shunchaki oʻzlashtirmaydi, balki yangi rollarni anglab yetadi va maʼlum bir maʼnoda xatto ijtimoiypsixologik norma ijodi bilan shugʻullanadi. Shaxsiy oʻrnini mustaqil tanlash-bu oʻziga xos **“men obrazi”**ni topish, bu obrazni doimiy rivojlantirish va uni atrofdagi odamlar orasida tasdiqlashdir. Shaxsiy maʼnoda oʻz oʻrnini mustaqil tanlash odamning yosh xususiyatlariga bogʻliq holda turli xil mazmunga ega. Maktabda taʼlim olish yillarida oʻz oʻrnini topish jarayoni oʻquvchilarning oʻzini hayotiy vazifasini anglash, shaxsiy imkoniyatlarini bilib olish va oʻz kelajagini belgilash ichki ehtiyoji bilan bogʻliq. Oʻz oʻrnini mustaqil tanlashni rivojlantirish maktab oʻquvchilarida ularga ijtimoiy jamiyatda qabul qilingan meʼyorlarni, qadriyatlarni oʻzlashtirishda ularga yordam beradigan hayot faoliyati va oʻzini anglash subyektini nuqtayi nazarini shakllantirish bilan bogʻliq. Shaxsning kasb-hunarni mustaqil tanlashi kasbiy faoliyat subyektining qaror topishi va rivojlanishini aks ettiruvchi hayot yoʻlining mustaqil yoʻnalishi sifatida, mehnat subyektining kasbiy-hayotiy yoʻlini tashkil etuvchi muhim voqealar yigʻindisi sifatida ifodalanishi mumkin.

Kasbga yoʻnaltirish koʻpchilik mualliflar tomonidan shaxsning psixofiziologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini oʻrganishning yoshlarni va mehnatga layoqatli boshqa yoshdagi guruhlarini ongli va erkin kasbiy mehnat oʻzini belgilashga tayyorlashning vositalari va metodlarini ilmiy asoslangan tizimi sifatida tushuniladi.

Kasbga yoʻnaltirish yaxlit tizim boʻlib, u:

-kasbga oʻqitish asosida faoliyatning har xil turlari (bilim olish, mehnat qilish) kasbga qiziqish, moyilliklarini rivojlantirish;

-kasb tanlash; kasbga moslashish; oʻz navbatida, har bir tizim umumiy maqsad bilan belgilangan vazifalariga ega komponentlarini oʻz ichiga oladi.

Shaxs tomonidan kasbni mustaqil tanlashni shakllanganligi kasbga yoʻnaltirishning natijasidir, shuning uchun kasbga yoʻnaltirishni boshqarish faqatgina shaxs tomonidan kasbni mustaqil tanlash jarayonini rivojlantirish orqaligina amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish sharoitida kasbga yoʻnaltirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari alohida ahamiyatga egadir. Ijtimoiy ishlab chiqarishni uzoq davom etgan chuqur iqtisodiy inqirozdan chiqishini tezlashtirish xodimlarning qobiliyatlari va koʻnikmalariga, ularning umumiy va kasbiy tayyorgarligiga hal qiluvchi darajada bogʻliqdir.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning rivojini toʻxtatganining sababi rahbar, mutaxassis hamda ishchilarda qobiliyatning yetishmasligi emas, balki qaror topgan ishlab chiqarish munosabatlari, mehnat qobiliyati boʻlgan fuqarolarni oʻzlarining yashirin imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishdan manfaatdor

emasligidadir. Yuqori unumli mehnatga erishish, xodimning ish o'rnini qadrini oshirish-kasbga yo'naltirishni shakllantirishni nazarda tutuvchi, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti hisoblanadi.

Shuning uchun yoshlarni iqtisodiyotdagi bo'sh, nufuzli bo'lmagan mehnat vazifalarini bajarishga qaratilgan ommaviy kasbga yo'naltirish voz kechish aktual bo'lib qolmoqda. Shaxsning individual talab va ehtiyojlarini hisobga olmaydigan, tabaqalashtirilgan yakka tartibdagi yondashish vositalarini pisand qilmaydigan, yoshlarni kasb tanlashga va kasbiy o'sishga tayyorlashning umumlashtirilgan modeli dolzarb hisoblanadi. Obro'ga erishish uchun inson muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga intiladi, tanlagan ishida kasb maxoratini ko'rsatadi va nihoyat raqobatlashadi. Obro'ga erishtirish maqsadida, kasbiy karyeraga tayyorlash uzoq jarayon bo'lib, u yoshlarni kasb tanlash bosqichida kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirish bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Kasbni mustaqil tanlash ko'p o'lchovli va ko'p bosqichli jarayon hisoblanib, unga turli nuqtayi nazar bilan qarash mumkin.

-jamiyat shaxs oldiga qo'yadigan vazifalar miqdori sifatida,

- ijtimoiy yondashuv;

-qarorlarni bosqichma-bosqich qabul qilish jarayoni sifatida bo'lib, ular vositasida individ jamiyatdagi mehnatni taqsimlashning shaxsiy afzalliklar va ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni shakllantiradi, ijtimoiy-psixologik yondashuv;

-hayotning individual uslubini shakllantirish jarayoni sifatida bo'lib, uning bir qismi kasbiy faoliyat hisoblanadi, tabaqalashtirilgan-psixologik yondashuv.

Oxirgi yondashuv nuqtayi nazaridan shaxsning kasb-hunarni mustaqil tanlash individning “Men” konsepsiyasi sifatida talqin etilib, aniq ijtimoiy sharoitlardagi kasbiy faoliyatda uning tushunishini, kechinmalarini va niyatlarini, predmetli (asosli) harakatlarini aks ettiradi.

Kasbni mustaqil tanlash jarayoni uzoq jarayon bo‘lib, uning yakunlanganini faqat insonda o‘ziga kasbiy faoliyati subyekti sifatida ijobiy munosabat shakllangandagina qayd qilish mumkin. Kasbni mustaqil tanlashning butun jarayonini odatda bir necha bosqichga ajratiladi.

Har bir individ oldida kasb-hunarni mustaqil tanlash maqsadiga erishishning juda ko‘p yo‘llari yotadi. Kasb-hunarni mustaqil tanlash-bu juda murakkab tuzilma. Unga quyidagilar kiradi: kasbga yo‘nalganlikning qaror topishi (qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar, sabablar, bilimlar, ko‘nikmalar) va o‘zini anglash (shaxs o‘zining shaxsiy sifatlarini bilishi hamda tanlayotgan kasbi to‘g‘risida o‘z tasavvurini o‘z imkoniyatlari bilan taqqoslashi).

Kasb-hunarni mustaqil tanlash jarayoniga kasbiy faoliyatining aniq bir sohasida o‘zini-o‘zi anglash katta ta’sir ko‘rsatadi. Gap shaxsning yuzaga keladigan maqsadlarni eng yuksak tasavvurlarni o‘z imkoniyatlari bilan taqqoslash to‘g‘risida boradi. Bunday o‘zini anglash jarayonlari bo‘lajak faoliyatning shaxsiy mazmunini chuqurlashtiradi. Agar tanlovning ma’lum sabablari insonning aniq kasbga ijobiy munosabatini izohlasa, u holda professional deb atash mumkin bo‘lgan bunday o‘zini anglash tufayli, unda kasbni tanlashning maqsadga muvofiqligiga ishonch shakllanadi.

Kasbni mustaqil tanlashning namoyon bo'lishining aniq shakli-o'zini baholashdir. U xulqni tartibga solishning, insonning qaysi kasbni tanlashni istashini (maqsad, sababning mavjudligi), u o'zi nimadan iborat (o'zining shaxsiy va psixofiziologik parametrlarini baholash), uning qo'lidan nima keladi (imkoniyatlari, moyilliklari, qobiliyatlari), jamiyat undan nimani kutishi (ijtimoiy-kasbiy maqom)ni anglash hisoblanadi. Individdning o'z moyilliklari va imkoniyatlarini jamiyatning ehtiyojlari bilan solishtirishi, bu jarayonni his qilishi, uning kasbni mustaqil tanlashning rivojlanish mexanizmi bo'ladi.

Bo'lajak kasbni, kasb foliyati sohasini tanlashga tayyor bo'lish kasb-hunarni mustaqil tanlash jarayonining natijasi hisoblanadi.

O'quvchilar tomonidan kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirishning shartlaridan biri tibbiy-pedagogik ish hisoblanib, u o'z ichiga tibbiy kasbiy maslahat berish bilan ta'lim masalalarini hal qilishni ham oladi: mehnatning fiziologik ahamiyati to'g'risida, bilim darajasini oshirish manbai sifatidagi, organizmning moslashuvchanligini oshirish manbai sifatidagi o'zini anglash to'g'risida yoshlarning bilim darajasini oshirish. Kasbga yo'naltirish tizimining va kasb-hunarni mustaqil tanlash jarayonining muhim tashkil etuvchisi kasbni tanlash hisoblanadi.

Kasb tanlashning asosiy masalasi va shu bilan birga asosiy qiyinchiligi shundaki, u inson avval shug'ullanmagan faoliyatiga muvaffaqiyatli kasbiy ixtisoslashish imkoniyatini oldindan ko'ra bilishi kerak. Buni, to'la tushunarli bo'lgan sabablarga ko'ra bajarish juda qiyindir. Kasbni tanlash - mazkur kasbni katta ehtimollik bilan muvaffaqiyatli o'zlashtira oladigan va u bilan bog'liq bo'lgan mehnat

majburiyatlarini bajara oladigan shaxslar tanlovidir. Kasbni tanlash jarayonida odamlarda mavjud bo'lgan jismoniy va intellektual farqlar asosida insonning kasbga yaroqli ekanligi aniqlanadi.

Kasbga yo'naltirishda kadrlarni kasbiy saralash va kasbni tanlab olish tushunchalarini farqlash lozim. Kasbiy saralash-bu shaxsning ixtisoslikni egallashga va kasbga oid majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishga yaroqli ekanligini o'rganish va ehtimoliy baholashdir, kasbiy saralashda kasb uchun inson juda qat'iy mezonlar bo'yicha saralab olinadi. Ish o'rnini aniqlashda kasbiy saralash aniq bo'sh lavozimlarga nomzodlarni ajratish, aniq bir ixtisoslikka o'rgatish yoki qayta o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Kasbni tanlab olish saralashdan bir muncha farqli bo'lgan vazifalarga ega.

Birinchidan, unga tor ixtisosliklar bo'yicha kasbiy ta'limni olayotganlarni joy-joyiga qo'yish maqsadida mehnat ekspertizasidan o'tkazish kiradi.

Ikkinchidan, bu kasbiy muvaffaqiyat (insonga qat'iy talablar qo'ymaydigan kasblarga tegishli) mezoni bo'yicha kasb tanlashdir.

Tadbirkorlik faoliyatiga nomzodlarni kasbiy saralashning muvaffaqiyatli mezon va kasbga yo'naltirishning yakuniy bosqichi kasbga moslashish (ko'nikish) hisoblanadi. Tashqi sharoitlarning xususiyatiga va ularning jadalligiga bog'liq holda moslashishning ikki turi ajratiladi:

-ijtimoiy munosabatlarga moslashish va faoliyat turiga moslashish;

-ijtimoiy munosabatlarga moslashish (ijtimoiy moslashuv) ijtimoiylashtirish usuli, shaxsni rivojlantirish va uni tarbiyalash sifatida qaraladi, bunda

ijtimoiylashtirish - “individning ijtimoiy muhitga, ijtimoiy aloqalar tizimiga, kirishi yo‘li bilan maxsus tajribani o‘zlashtirishi, individ tomonidan uning muloqot qilishi, faol faoliyat yuritishi, ijtimoiy muhitga kirishib ketishi hisobiga uning ijtimoiy aloqalar tizimini faol takror ishlab chiqish jarayonidir”.

-faoliyat turiga moslashish (o‘quv, kasbiy, mehnat va x.k. moslashuv) uzluksiz va o‘zaro bog‘liq jarayon tarzida qarab chiqiladi.

-faoliyat sohasiga moslashish - “o‘quv va mehnat faoliyatining yangi turlarini o‘zlashtirish, o‘rganishdir”.

-munosabat sohasida moslashish uning kengayishi, ya’ni turlarining va uni amalga oshirishning noodatiy usullarining kiritilishi tomonidan qarab chiqiladi, ya’ni moslashish shaxsni ijtimoiylashtirish jarayonini namoyon qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish ularning kelajak hayotini belgilovchi muhim jarayon bo‘lib, psixologik yondashuv, individual tahlil va hamkorlik asosida samarali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimova V.M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2018.
3. Davletshin M.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Shoumarov G‘.B. Oila va shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2016.
5. Mavlonov A. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

6. Holland J.L. Making Vocational Choices: A Theory of Careers. – Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1997.
7. Super D.E. The Psychology of Careers. – New York: Harper & Row, 1957.
8. Bandura A. Social Cognitive Theory of Career Development. – New York: Academic Press, 2001.
9. OECD. Career Guidance and Development. – Paris, 2020.
10. UNESCO. Career Guidance Handbook for Schools. – Paris, 2018.
11. Ziyo.net